



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

JAMIYATNI LIBERALLASHTIRISH KONTEKSTIDA XALQ BILAN MULOQOT MEKANIZMLARINING GNOSEOLOGIK VA INSTITUTSIONAL MOHIYATI

Mamatqulov Dilmurod Mamadaliyevich

Samarqand davlat pedagogika instituti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqola jamiyatni liberallashtirish jarayonlari sharoitida xalq bilan muloqot mexanizmlarining gnoseologik hamda institutsional tabiatini falsafiy-metodologik nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Mazkur yondashuv muloqot fenomenini ijtimoiy bilish, fuqarolik faolligi va demokratik qadriyatlar rivoji bilan uzviy bog‘liq holda talqin etish imkonini beradi. Xalq bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish hamda uning hayotiy sharoitlarini ilmiy-metodologik asosda o‘rganish zamonaviy boshqaruv paradigmasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda muloqot oddiy axborot almashinuvi emas, balki ijtimoiy voqelikni anglash va uni konseptual qayta ishlash vositasi sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, liberallashtirish, “xalq bilan muloqot”, kommunikativ amaliyot, diskurs, demokratiya, legitimlik, ijtimoiy konsensus, aksiologik yondashuv.

ГНОСЕОЛОГИЧЕСКАЯ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ СУЩНОСТЬ МЕХАНИЗМОВ ДИАЛОГА С НАРОДОМ В КОНТЕКСТЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА

Маматкулов Дилмурод Мамадалиевич

Самаркандский государственный педагогический институт, независимый исследователь

Аннотация

В статье анализируется gnoseологическая и институциональная природа механизмов взаимодействия с населением в условиях либерализации общества с философско-методологической точки зрения. Такой подход позволяет рассматривать феномен коммуникации в тесной связи с социальным познанием, гражданской активностью и развитием демократических ценностей. Организация эффективного взаимодействия с населением и научно-методологический анализ его условий выступают одним из приоритетных направлений современной управленческой парадигмы. В данном контексте коммуникация трактуется не как простой обмен информацией, а как средство осмысления социальной реальности и её концептуального переосмысления.

Ключевые слова: гражданское общество, либерализация, «взаимодействие с населением», коммуникативная практика, дискурс, демократия, легитимность, социальный консенсус, аксиологический подход.

THE GNOSEOLOGICAL AND INSTITUTIONAL ESSENCE OF MECHANISMS FOR DIALOGUE WITH THE PEOPLE IN THE CONTEXT OF THE LIBERALIZATION OF SOCIETY

Mamatqulov Dilmurod Mamadaliyevich

Samarkand State Pedagogical Institute, Independent Researcher

Abstract

The article analyzes the gnoseological and institutional nature of mechanisms of communication with the public in the context of societal liberalization from a philosophical and methodological perspective. This approach enables the interpretation of communication as closely linked to social cognition, civic engagement, and the development of democratic values. Establishing effective public communication and analyzing its conditions on a scientific and methodological basis is one of the key priorities of the modern governance paradigm. In this context, communication is understood not merely as an exchange of information, but as a means of understanding and conceptually reconstructing social reality.

Keywords: civil society, liberalization, public communication, communicative practice, discourse, democracy, legitimacy, social consensus, axiological approach.

Insoniyat o‘zligini anglab yetibdiki, erkinlik, erkin yashash, o‘z imkoniyatlarini erkin ifoda etish u uchun oliy qadriyat hisoblanib kelgan. U har doim erkinlikka intilgan, o‘z erkinligi uchun kurashib kelgan. Hatto erkinlik uchun talab etiladigan bo‘lsa, jonini ham bergan, chunki erkin yashash insonga oliy

mavjudot sifatida o'zligini namoyon etish, o'z qadr-qimmatini saqlash, tashqi tazyiqlarsiz, ixtiyoriy mavjud bo'lish imkonini beradi. Insonning ijtimoiy makonda to'laqonli mavjud bo'lishi, o'z mavjudlik mohiyatini va mavjud potensialini ro'yobga chiqara olishi uning erkinligi bilan belgilanadi. Ushbu holatlarni inobatga olgan holda, davlatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq jamiyatning turli jabhalarini, xususan, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotni erkinlashtirish masalasi dolzarb masala sifatida ko'rib chiqila boshlandi. "O'zbekistondagi yangilanishlar rivoji o'ziga xos kechayotganligini ifoda etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayotni maqsadli takomillashtirish, bu muhitni umuminsoniy va milliy tamoyillar uyg'unligi ruhida rivojlantirish, siyosiy plyuralizmga shart-sharoitlar yaratish, liberalizm muhitini har tomonlama kengaytirishga da'vat etish orqali mamlakatimizda yalpi yangilanishlar jarayonlari boshlanishiga nazariy poydevor qo'yildi" [2;6-7]. Ya'ni jamiyatni erkinlashtirish jarayonida xalq bilan muloqotning ilg'or mexanizmlarini ishlab chiqish nihoyatda muhimdir. Shu o'rinda muloqot jarayonining ijtimoiy-falsafiy, psixologik fenomen sifatidagi mohiyatini ochib berishimiz lozim.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mamlakatimizning tadqiqotchi-olimlari tomonidan muloqot va "xalq bilan muloqot" tizimini izchil takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish masalalarining ayrim nazariy-metodologik masalalari borasida qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, N. Jo'rayev, A. Saidov, M. Qirg'izboyev, Sh. Paxrutdinov, Q. Nazarov, B. To'rayev, I. Saifnazarov, A. Muxtarov, Sh. Negmatova, G. Tagiyeva, M. Maxsudova, A. Qodirov kabi olimlarning tadqiqotlarini keltirishimiz mumkin. Jumladan, G. Tagiyeva tadqiqotida keltirilganidek, "Xalq bilan muloqot nafaqat odamlarni tinglash, balki ularning taklif va tavsiyalari asosida mamlakatimizni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishni ham nazarda tutadi" [9;14].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada ilmiy bilishning turli metodologik yondashuvlari uyg'un holda qo'llanilgan bo'lib, ular tadqiqot obyektini har tomonlama va chuqur anglashga xizmat qiladi. Jumladan, tarixiylik tamoyili orqali o'rganilayotgan jarayonlarning vaqt mobaynidagi evolyutsiyasi va transformatsiyasi tahlil etilgan bo'lsa, mantiqiylik usuli orqali ularning ichki tuzilishi va sabab-oqibat bog'liqliklari ochib berilgan.

Tahlil va natijalar

Qadim zamonlardan boshlab jamiyat-siyosat o'rtasidagi muloqot madaniyatini rivojlantirish, insonlarni ishonitirish va ongni kengaytirish jarayoni bugungi global kontekstda ham ahamiyatli bo'lib qolmoqda. "Insonning eng muhim va hayotiy zarur ehtiyojlaridan biri, fiziologik ehtiyojdan keyin – bu muloqotga bo'lgan ehtiyojdir. Xo'sh, odam muloqotdan nima oladi. Muloqotdan yo qoniqish hosil qiladi yoki uning aksi qoniqmaslik, ya'ni mazkur muloqotdan inson ranjiydi, ko'ngli cho'kadi, kayfiyati buziladi, asabiylashadi, yig'laydi, boshi og'riydi, boz ustiga bu boradagi ishlari yurishmaydi, ma'lum ma'noda ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik zarar ham ko'radi" [1;17]. Shu ma'noda, falsafiy-ijtimoiy yondashuvlar yordamida bilimga bo'lgan ishonch, axborotlarni o'zaro tekshirish, muloqot (dialog) madaniyatini yaratish — bularning barchasi insoniyatning yanada adolatli, egalik va ishonchga tayanadigan jamiyat qurishiga yo'l ochadi. Shuningdek, o'zaro hurmat, erkin fikr, demokratik deliberatsiya va raqamli xavfsizlikni uyg'unlashtirgan holda ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash mumkin.

Ma'lumki, "Muloqot — odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir" [3;17]. Ya'ni muloqot jarayoni inson hayotining ijtimoiy-psixologik va falsafiy hodisasi sifatida ko'riladi va uning mohiyati nafas olayotgan havodan keyin keladigan eng muhim ijtimoiy fenomenlardan biri sifatida tushunilishi mumkin. Shaxslararo munosabatlar jamiyatdagi ijtimoiy hayotning markaziy dinamikasini tashkil etadi. Bunda muloqot muhiti elementlarining yetishmasligi yoki haddan ziyod bo'lishi insonning hayotiy qadriyatlarini, farovonligi va muammolarga qarshi kurashish qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, ayrim vaziyatlarda esa hayotning mumkin bo'lgan yo'lini cheklaydi. Taniqli rus faylasuf-olimi R.S. Nemovning fikricha: "Muloqot deyarli barcha tirik mavjudodlarda uchraydi. Lekin inson darajasida muloqot o'zining oliy darajasiga erishadi, ongliklik, estetiklik va maqsadga yo'nalganlik kabi jihatlarni kasb etadi va eng muhimi, nutq vositasida o'zining eng oliy darajasiga erishadi" [10;118].

Bugungi kunda mamlakatimizda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida aholi bilan ochiq muloqot mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan siyosat izchil ravishda amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonni oddiy boshqaruv amaliyoti sifatida emas, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning mazmunan yangilanishiga xizmat qiluvchi konseptual transformatsiya sifatida talqin etish mumkin. Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2017-yilning "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" deb e'lon qilinishi [6] davlat organlari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlar sifatini oshirishga yo'naltirilgan normativ-axloqiy yo'lni belgilab berdi. Yilga bunday nom

berilishi zamirida davlat organlarining xalq bilan muloqot qilish munosabatlarini yanada mustahkamlash, fuqarolarning murojaat qilish huquqlarini kafolatlash va mavjud muammolarni oqilona hal etish maqsadlari mujassamlashgan. Bu, o'z navbatida, muloqot madaniyatining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida xalq bilan ochiq muloqot mexanizmini yanada takomillashtirish, muhim qarorlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish, davlat organlariga kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonini raqamlashtirish, murojaatlarning tezkor va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlash ko'zda tutilgan. Eng asosiysi, "Davlat xalqqa xizmat ko'rsatishi shart" g'oyasini tatbiq etishni nazarda tutuvchi "Xalqchil davlat" milliy dasturi ishlab chiqilmoqda" [8].

Demak, xalq bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish, uning hayotiy sharoitlarini ilmiy asosda tahlil qilish, boshqaruv apparatini takomillashtirish va bu jarayonlarni huquqiy jihatdan kafolatlash — bularning barchasi o'zaro bog'liq bo'lgan kompleks tizimni tashkil etib, zamonaviy demokratik boshqaruv modelining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

"Inson manfaatlarini har narsadan ulug'" degan ezgu g'oyani hayotga izchil joriy etish" [7] davlatimiz siyosatining muhim vazifasiga aylandi. Bu jarayon nafaqat eksperiment sifatida, balki institutsional me'yorlar, axborot oqimi va fuqarolarning murojaat etish huquqlarini himoya qilish mexanizmlari orqali jamiyatning mustahkamlik darajasini oshirishga qaratilgan omil sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Davlat boshqaruvining bunday demokratik usuli bugun O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, avvalambor, xalq bilan muloqot prinsipiga g'oyat uyg'un va hamohang bo'lib, bizning ish faoliyatimiz samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi, deb o'ylayman" [5].

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, Yangi O'zbekiston sharoitida demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jarayoni davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mazmunan qayta qurilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayonda ochiq va samarali muloqotni qaror toptirish hamda jamoatchilik bilan kommunikatsiya mexanizmlarini tizimli ravishda rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. "Aslida xalq bilan muloqot, doimo insonlar tashvishi va muammolarini o'ylab yashash har qanday rahbar uchun birinchi va muqaddas vazifa bo'lishi shart. Rahbarlik va boshqaruv madaniyati, hayotiy bilim va tajribalar qayerdan boshlanadi? Xalq bilan bevosita muloqot qilishdan boshlanadi" [4]. Ochiq muloqot mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan siyosat — bu nafaqat ma'muriy islohot, balki jamiyatning ma'naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan chuqur falsafiy jarayondir. Bu esa barqaror taraqqiyotning asosiy poydevorlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev I. Q., Mutalova Z. J. Ijtimoiy me'yorlar va inson salomatligi. – Toshkent, 2007. – 110 b.
2. Jo'rayev N. K. O'zbekiston tarixi (Milliy istiqlol davri). 3-kitob / mas'ul muharrir N. Abduazizova. – Toshkent: Sharq, 2011. – 736 b.
3. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2006. – 119 b.
4. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda // "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri S. Doniyorov savollariga javoblar. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/4547>
5. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/1371>
6. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/2>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2016-yil 17-dekabrda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida F-4760-son farmoyish. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3121798>
8. Saidov A. X. Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida. – URL: <https://parliament.gov.uz/oz/articles/616>
9. Tagiyeva G. G. Xalq bilan muloqotda ijtimoiy hamjihatlik tamoyillarini takomillashtirish: sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 55 b.
10. Немов Р. С. Психология. Книга 1: Общие основы психологии. – М.: ВЛАДОС, 2004. – 148 с.